

Shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati yangi tarifini qo'llanish haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2724-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati uzluksiz va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati yangi tarif darajalarini belgilash yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 martdagi 05/1-338-sonli topshirig'i ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. Shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati yangi tarif darajalarini belgilash yuzasidan berilgan "O'zbekiston Avtomobil transporti" agentligining 2018 yil 4 apreldagi e-342-sonli, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2018 yil 3 apreldagi RJ/06-02/790-sonli, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasining 2018 yil 5 apreldagi 02/08-1504-sonli, Davlat soliq boshqarmasining 2018 yil 5 apreldagi 13/1-03162-sonli, "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2018 yil 3 apreldagi 225-sonli va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018 yil 12 apreldagi DS/15-04-34-11/86-820-sonli takliflari ma'qullansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati bir martalik avtobusda yo'lovchilarni tashish xizmati tarifi 900 so'm va yo'nalishli taksida yo'lovchilarni tashish xizmati tarifi 1000 so'm miqdorida belgilansin.

3. "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi, Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi va Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda yo'lovchi tashish transporti tizimini yanada takomillashtirish, tashuvchilar tomonidan litsenziya kartochkalariga ega avtotransport vositalarida xizmat ko'rsatishini, bunda yo'lovchi va bagaj tashish havfsizligi va yong'in havfsizligi, texnika havfsizligiga rioya etilishini, shuningdek, tashuvlarni ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish holatlarini aniqlash yuzasidan muntazam ravishda qo'shma reydlar tashkil etish;

shahar yo'lovchilar transporti ish samaradorligini oshirish maqsadida ularda yo'lovchilar oqimini doimiy ravishda monitoring qilib borish, tasdiqlangan harakat jadvalariga va harakatlanish oraliqlariga qat'iy rioya qilish;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi va Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, harakatdagi tartibni "onlayn" real vaqt rejimida uzoqdan nazorat qilish (GPS) va shahar yo'lovchi tashish transportini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish tizimlari qo'llanilishini tashkil qilish;

Davlat soliq boshqarmasi bilan birgalikda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy va texnik ko'rsatkichlarini doimiy ravishda tahlil qilib borish topshirilsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari (Nagmetov)ga "O'zavtotrans" agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi "Taxiatosh neft bazasi" MChJ va uning filiallari bilan birgalikda yo'lovchilarni tashish korxonalari talablariga asosan dizel' yoqilg'isi bilan belgilangan tartibda uzluksiz ta'minlash topshirilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2016 yil 30 martdagi 64-b-sonli farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Vazirlik va idoralar o'zlariga qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi hamda "erkin Qoraqalpaqstan" gazetasi muharririyatiga shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar tashish xizmati yangi tarifi miqdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni aholiga etkazish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish tavsiya etilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran o'z kuchiga kirishi belgilab qo'yilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari S.Nagmetov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)